



“ANOR” HIKOYALAR TO‘PLAMIDAGI XOS SO‘ZLARNING NEMIS TILIDAGI TARJIMASI XUSUSIDA

¹Turdiyev Hakimjon Jumayevich

Namangan davlat universiteti nemis va fransuz tillar kafedrasida katta o‘qituvchisi

hakimjon@rambler.ru. tel: +998 93 356 60 53,

²Turdiyev Odiljon Hakimjonovich

Namangan davlat universiteti nemis va fransuz tillari kafedrasida stajyor o‘qituvchisi

odiljon1986@inbox.ru. Tel: +998 97 426 19 86.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7575157>

ARTICLE INFO

Received: 16th January 2023

Accepted: 25th January 2023

Online: 26th January 2023

KEY WORDS

Turmush tarzi, xos (realiya) so‘zlar, baynalmilalilik, adabiyotshunoslik, tahlil, badiiy g‘oyaviy og‘zaki nutq A.Qahhor, O.Astanov, mukammal, asliyat, tarjima.

ABSTRACT

Maqolada xos (realiya) so‘zlarning tarjima muammolari “Anor” – “Der Granatapfel” – hikoyalar to‘plamini nemis tiliga tarjimasida asosida o‘zbek va nemis tillarida o‘zaro qiyosiy va ilmiy tahlil qilinadi. Qiyosiy tahlil tarjimashunos olimlar G.Salomov va Q.Musayevlarning ilmiy fikrlari asosida amalga oshirilgan.

Taniqli o‘zbek yozuvchisi A. Qahhorning “Anor” nomli hikoyalar to‘plami yosh tarjimon Oybek Ostanov tomonidan muvaffaqiyatli tarzda mahorat bilan nemis tiliga tarjima qilingan. Bizga ma‘lumki, A. Qahhor o‘z zamonasining yetuk, iste‘dodli va shu bilan birgalikda halqning turmush tarzini mahorat bilan badiiylashtira olgan yozuvchilardan biridir. Uning tomonidan yaratilgan asarlarda halqimiz hayot tarzi yorqin, qiziqarli usul va badiiy buyoqlarda ochib berilgan. Halqning urf – odatlarini ochib berishda xos so‘zlardan, ya‘ni realiyalardan foydalanmaslikning iloji va imkoniyati yo‘q. Aytaylik, A. Qahhorning bir necha hikoyalarida keltirilgan “sandal” so‘zi biz til sohiblari uchun o‘z o‘zidan hech qanday muammosiz tushunarli, biroq yuqorida ta‘kidlanganidek, “Anor” hikoyalar to‘plamini nemis tiliga tarjima qilgan O. Ostanov “sandal” so‘zini nemis tiliga tarjima qilayotganida o‘z – o‘zidan tushunarliki, anchagina bosh qotirgan, chunki o‘zbek tilidagi “non” so‘zini nemischaga “das Brot” deb tarjima qilishda hech qanday muammo bo‘lmagan holda, “sandal” so‘zini nemischaga tarjima qilishda tarjimon ancha bosh qotirishi aniq. Sandal, imom, ellikboshi, beshikto‘y yoki shunga o‘xshash so‘zlar “Anor” hikoyalar to‘plamida ko‘plab uchraydi. Bunday so‘zlar ishtirok etgan gaplarni chet tillarga, xususan, nemis tiliga o‘girishda tarjimonda yuksak mahorat va yaxshi tajriba bo‘lishi lozim, chunki bunday so‘zlar xos so‘zlar (realiyalar) bo‘lib, ular tarjimonga “yaxshigina” qo‘shimcha muammo hisoblanadi. Har qanday badiiy – g‘oyaviy va xos so‘zlarga boy bo‘lgan asarlar o‘zida baynalmilalilik va milliylikni namoyon qila oladi. A. Qahhorning barcha asarlari, xususan, “Anor” hikoyalar to‘plami yuqoridagi badiiy xususiyatlarga ega va bunga adabiyotshunos olimlar, shuningdek yozuvchining barcha kitobxonlari e‘tiroz bildira olmaydilar. O‘zbek halqining urf – odatlari va moddiy hayotida mavjud muayyan tushuncha, voqea – hodisalar, o‘z – o‘zidan tushunarli–ki, nemis halqini moddiy – ma‘naviy hayotiga, urf –



odatlariga mos tushmaydi. [2] Yuqorida sanab o'tilgan tafovutlar esa badiiy asarlardagi xos (realiya) so'zlarni tarjima qilishda tarjimon uchun o'ziga xos muammolarni keltirib chiqaradi. "Anor" hikoyalar to'plamidagi bir yuz ellikka yaqin xos (realiya) so'zlarni mavjudligi yuqoridagi fikrimizni dalili bo'la oladi.

Xos so'zlar haqida gap ketganda o'zbek halqining turmush tarzida, asrlar, yillar davomida shakllanib kelayotgan chopon, yaktak, novvot yoki shunga o'xshash o'zida moddiylikni, mavjudlikni ifodolovchi so'zlarni xos (realiyalar) so'zlar degan tushunchaga kelish bizningcha to'g'ri fikrlashdir. Xos so'zlar shu tariqa paydo bo'ladi va ular rivojlanib, kengayib boraveradi. [2]

Ayrim holatlarda og'zaki nutqimizdagi so'zlar ham xos (realiya) so'zlarga aylanishi mumkin. Taniqli tarjimashunos olim Q. Musaev tarjimashunoslikka doir "Tarjima nazariyasi asoslari" nomli asarida quyidagi fikrlarni keltiradi: A. Qahhorning "Sinchalak" qissasida tandirga o't yoqayotgan Kifoyatxonning xovliga kirib kelgan Saidani o'zbekona odobga ko'ra "keling" deb qarshilashi va bu lutfni ruscha tarjimada o'z aksini topmay qolgani, ya'ni tarjimon tomonidan tarjima qilinmagani muallif tomonidan ataylab aks ettirilgan o'zbekona milliylikni yo'qqa chiqargan. Yuqorida keltirilgan "Keling" so'zi o'sha o'rinda deyarli xos (realiya) so'zga aylangan va bu so'zni "mohir" tarjimon ruscha tarjimada to'g'ri keltira olmagan. [2] Yuqorida biz O. Ostanov "Anor" hikoyalar to'plamini muvaffaqiyatli tarjima qila olgan degan fikrni olg'a surgan edik. Ushbu ijodiy rag'batlantirish "Anor" dagi "Adabiyot muallimi" – "Literaturlehrer" hikoyasida o'z tasdig'ini topishi mumkin. Ushbu hikoyada tarjimonga "Keling, uyga kiring!" gapini tarjima qilishiga to'g'ri kelgan va bu iborani "Kommen Sie ins Haus!" shaklda, iltifotli oxangda tarjima qilgan. Bunday an'anaviy tus olgan o'zbekona, rasm – rusumlarni tarjimada mukammal aks ettirish esa nemis kitobxonining taasavvurini halqimizning o'ziga xos hayot tarzi bilan boyitadi. [5]

Tarjimashunos olim Q. Musaev xos so'zlarni boshqa tilga tarjima qilishda quyidagi fikrlarni olg'a suradi: "O'z – o'zidan ma'lumki, muayyan halq turmush tarzini ifoda etadigan so'zlarnigina bunday tushunchalarga ega bo'lmagan halqlar tillariga betarjima aslyatdagi shaklda o'tkaziladi, shu tariqa tarjimada muallif matnning milliy buyog'i adekvat talqin etiladi. Masalan, taxmon, xurjun, ketmon, suzma kabi o'zbeklar turmush tarziga xos ifoda vositalarini anglatadigan lisoniy birliklarga ega bo'lmagan ingliz va rus halqlari tillariga qilingan o'girmalarida, betarjima aynan keltirish aslyatning milliy xususiyatini saqlab qolish bilan birga, tarjima tillari lug'ut tarkibini kengayishi uchun zamin yaratish imkoniyatini beradi." [2] Q. Musaev fikrlarini qo'llab quvvatlagan holda "Anor" hikoyalar to'plamini nemis tiliga tarjima qilgan O. Ostanovning tarjimalarini tahlil qilinganda tarjimon bu muammoni hal qilishga boshqacharoq yondashganini anglash mumkin. Masalan "Mahalla" – Gemeinde hikoyasida xos so'zlardan "tandir" so'zini tarjima qilishga to'g'ri kelgan. Q. Musaevning fikriga ko'ra betarjima berilib, so'ngra bu so'zga izoh berilishi kerak edi. [2] Tarjimon esa "tandir" so'zini to'g'ridan – to'g'ri "Tonofen" deb tarjima qilgan va hikoyalar to'plamini so'ngida har bir xos so'zlarga izoh keltirgan. Yana shuni ta'kidlash kerak – ki, hikoyalarda barcha xos so'zlarni to'g'ridan – to'g'ri nemis tiliga tarjimasi keltirilgan va ularga izoh berilgan. Masalan: "Dasturxon" so'ziga quyidagicha izoh keltirilgan. Dasturxon ist eine Tischdecke, aber man legt so eine Decke nicht nur auf dem Tisch, sondern auch einen Teppich, wie es im Orient bzw in Usbekistan üblich ist, am Boden zu sitzen. Menimcha, izoh juda to'g'ri, o'rinli, biroq izoh



so'ngida Die Familienangehörigen oder Gäste sitzen um die Tischdecke um etwas zu essen deb izohni yanada kengaytirish mumkin. Agar so'ngi izoh keltirilmasa nemislar dasturxon so'zini stol qoplamasi deb tushunishlari mumkin. Tarjimon O. Ostanov A. Qahhorning "Anor" hikoyalar to'plamidan 20 ta hikoyani nemis tiliga tarjima qilgan bo'lib, u tarjima qilgan hikoyalarda 150 dan ortiq xos (realiyalar) so'zlar uchraydi. Tarjima jarayonida 100 dan ortiq realiyalarni nemis tiliga **uzicha** izohlar bilan tarjima qilingan. Kitobxonlarni, tarjimon bo'lishga harakat qilayotganlarni shuningdek tarjimashunoslarni quyidagi xos so'zlarni nemis tiliga qanday izohlab berilgani albatta qiziqtiradi. Atlas, beshik to'yi, dasturxon, eshon, dodxox, jonfig'on, ayvon, qilko'prik, xoji, qozi, maxsi, mirzacho'l, Moskvich, munkarnakir, musulmonobod, nomoz, palov, payg'ambar yoshi, qori, sandal, Sim, sim, so'm, tarovex, tanga, tandır, do'ppi, taloq qilmoq, oqsoqol, oqposhsho, chilyosin va boshqalar.

Yuqorida keltirilgan xos so'zlarning ayrimlarini izohlariga alohida to'xtalamiz.

Atlas – der Name des seiden Stoffes, der nur aus Seidenstoffes gewebt wird.

Beshik to'yi – ein Familienfest, bei dem Säugling zum ersten Mal in die Wiege gelegt wird. Man feiert es mit allen Verwandten und Nachbarn.

Eshon – ist eine geistliche genauso wie der Kadi. Ein einflussreicher Mann. Islamischer Richter

Dodxox – ist eine der wichtigsten Posten im bucharischen Emirat. Pflichtgemäß nimmt ein Dodxoh die Eingaben im Namen des Emirs an und händigt dann die Antworten den Überbringern wieder aus.

Jonfig'on – die Hauptperson bei dieser Geschichte. Wenn man dieses usbekische Wort ins Deutsche übersetzt, bedeutet es: arm wie eine Kirchenmaus.

Nemis kitobxonlari ushbu hikoyalar to'plamini o'qib o'rganish jarayonida o'zbek halqini turmush tarzini va urf – odatalarini o'rganish bilan birga tarixiy shaxslar xamda islom dini peshvolari to'g'risidagi ma'lumotlarga ham ega bo'ladilar. Jumladan, Bahouddin Naqshbandiy to'g'risida ma'lumot keltiriladi. Naqschbandiy b.z.w. Baha -ud - din Naqschband (1318 - 1389) aus Buchara, ist Gründer einer der bekanntesten asketischen Richtungen und zwar des Sufi – Ordens Naqschbandiya. Yoki Gavsul Azam Abdulqodir Giloniy haqida quyidagi ma'lumotlar keltiriladi. Gavsul Asam Abdulkadir Giloniy (1088 - 1166) aus Bogdod, ist Gründer der nächsten weit in der islamischen Welt verbreiteten Sufi – Ordens – Kadiriya. Die Gräber des beiden Geistlichen gelten als heilige Pilgerstätte, wo die gläubigen Mohammedener hingehen. Dort kann man Schafe als Opfergabe bringen oder Almosen spenden.

„Granatapfel“da shuningdek geografik joy nomlari haqida ham izohlar keltirilgan. Jumladan Mirzacho'l, Musulmonobod, Sim va boshqalar. "Anor" hikoyalar to'plamini nemischaga o'g'irishdagi yutuqlardan biri er va ayol o'rtasidagi munosabat, ya'ni ayol o'z eriga "Siz" deb murojaat qilishiga doir izoh keltiriladi. Sie ist üblich, dass die Frauen ihre Ehemänner in Usbekistan siezen. Shuningdek „Vater“ so'ziga aloxida e'tibor berilishi ham tarjimonning yaxshi yutuqlaridan biri deyish mumkin. Vater – so rufen die Frauen ihre Ehemänner nach dem ersten Kind im Zentralasien. Yuqorida keltirilgan xos (realiyalar) so'zlarga izohlar keltirilishi nemislarda o'zbek halqining turmush – tarzi va uning urf – odatlari haqida aniq va yaxshi tasavvur paydo bo'lishiga imkon yaratadi.

Yuqorida sanab o'tilgan ijobiy yutuqlar bilan bir qatorda tarjimada ayrim kamchiliklar ham ko'zga tashlanadi.

- samovor, kalash, kerosin, kolxoz, kabi xos so'zlarga izohlar keltirilmagan.



- do'ppi so'ziga keltirilgan izoh do'ppi so'zini ma'nosini to'la ochib berolmaydi.
 - ayvon – so'ziga keltirilgan izohda Im Lexikon steht oft „Jwan“ qandaydir tushunarsiz.
 - Maxsi – so'ziga berilgan izohni o'zgartirish kerak. Maxsi – paypoq emas.
 - Mirzacho'l so'zidagi ist kesimini „war“ so'zi bilan almashtirish maqsadga muvofiqlikni ta'minlaydi, chunki Mirzacho'l allaqachon cho'llik maqomini yo'qotgan va bog'u bo'stonga aylangan.
 - O'zbek ismlari haqida ham izoh keltirish mumkin edi. Masalan, Murod. Agar bu shaxs xurmatli bo'lsa, uni xechkim Murod deb chaqirmaydi, ya'ni Murodjon, Murodbek, Murodxon deb chaqiriladi. Ayollar va qizlar ismlari yuqoridagi kabi talqin etiladi. Masalan: Toji deyish o'rniga Tojixon, Tojiniso deyish, ism egasini xursand qiladi. Ko'rsatib o'tilgan bu e'tirozlar tarjimaning mazmun moxiyatiga salbiy ta'sir eta olmaydi, chunki, keyingi nashrlarda bu kamchiliklarni osonlik bilan ijobiylashtirish mumkin.
- Xulosa o'rnida quyidagilarni keltirish mumkin:
- „Anor“ hikoyalar to'plamini nemis tiliga o'girilishi o'zbek va nemis xalqlari o'rtasidagi adabiy va madaniy aloqalarning kengayishiga xizmat qiladi.
 - Hikoyalarda keltirilgan xos (realiyalar) so'zlar va yozuvchi tomonidan o'zbek xalqining urf – odatlarini badiiy buyoqlarda mohirlik bilan berilganini nemis tiliga tarjima qilinishi nemis xalqida halqimizning urf – odatlari va o'tmish tarixi to'g'risida yaxshi tasavvurlarni paydo qiladi.
 - „Der Granatapfel“ – o'zbek va nemis tillarining kamoloti uchun zaruriy vosita sifatida, ularning rivojlanishini jadallashtiradi, lug'at boyligini oshiradi va takomillashtiradi.
 - yurtimizga turistlar oqimini sezilarli darajada ko'paytiradi.
 - „Anor“ hikoyalar to'plamining tarjima qilinishi nemis adabiyotiga yangi obrazlar, badiiy, tasviriy vositalar inom etadi.
 - Yurtimizda nemis tilini o'rganayotgan talabalarda tarjima bilan shug'ullanish va tarjimon bo'lishga doir qiziqishlarini oshiradi.

References:

1. G'.Salomov Tarjima nazariyasiga kirish. Toshkent "O'qituvchi" 1978
2. Q. Musaeov. Tarjima nazariyasi asoslari. Toshkent. 2005 y.
3. Z. Sadiqov. "Amaliy tarjima". Namangan 2020 y.
4. A.Qahhor . "Anor" xikoyalar to'plami. Toshkent. 2010 y.
5. O.Ostanov. "Granatapfel". Toshkent. 2010 y.